IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: ZG62513315

Toshkent kimyo-texnologiya institutining
2022-yil “25” iyuldagi №252 - sonli buyrug‘iga ilova

# Toshkent kimyo-texnologiya institutining 2022-yilning II yarim yilligi
# ISH REJASI

| № | Vazifalar | Ijro muddati | Ijro uchun mas’ullar |
|---|---|---|---|
| | **I. Toshkent kimyo-texnologiya institutining 2022-yil II yarim yilligidagi ustuvor vazifalari** | | |
| | **1.1. Kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash va o‘quv-uslubiy jarayonni takomillashtirish** | | |
| 1. | Respublika fan va ta’lim makonida institutning yuksak akademik obro‘sini ta’minlash va uzluksiz kasbiy ta’limning ko‘p bosqichli tizimini takomillashtirish, ta’lim dasturlarini amaliyotga yo‘naltirilganligini kuchaytirish va mutaxassislar tayyorlashni sifat jihatidan yangi bosqichiga ko‘tarish. | yil davomida | T.T.Safarov, X.Sh.Butayev, R.A.Xabibullayev, Fakultet dekanlari, Kafedra mudirlari |
| 2. | Institutda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom asosida joriy etilgan kredit-modul tizimi bo‘yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirish. | yil davomida | T.T.Safarov, X.Sh.Butayev, R.A.Xabibullayev, Fakultet dekanlari |
| 3. | Fan o‘qituvchilari tomonidan talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish uchun institutda barcha shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish. | yil davomida | T.T.Safarov, X.Sh.Butayev, R.A.Xabibullayev, Fakultet dekanlari |
| 4. | Institutda o‘quv jarayonining o‘quv-uslubiy, axborot va moddiy-texnik bazasini yuqori darajada rivojlantirishni ta’minlash. | yil davomida | T.T.Safarov, B.B.Qodirov, X.Sh.Butayev, R.A.Xabibullayev, Kafedra mudirlari |
| 5. | Ta’lim berish sifatini oshirish<br>***Amalga oshirish mexanizmi:***<br>1.Ta’lim standartlari va o‘quv jarayonini xalqaro talablar asosida takomillashtirish.<br>2.2022/2023 o‘quv yilidan o‘quv jarayonlarini kredit-modul tizimiga to‘liq o‘tkazish.<br>3.Institut professor-o‘qituvchilari malaka va mahoratlarini ishchi guruh asosida aniqlagash.<br>4. Professor-o‘qituvchilar tarkibini xorijda tahsil olgan mutaxassislarni jalb qilish. | yil davomida | T.T.Safarov, X.Sh.Butayev, R.A.Xabibullayev, Z.A.Babaxonova, Kafedra mudirlari |
| 6. | O‘quv jarayoni sifatini oshirish<br>***Amalga oshirish mexanizmi:*** | yil davomida | T.T.Safarov, X.Sh.Butayev, |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | 1.Institutda o‘quv jarayoni, ilmiy faoliyat va umumiy boshqaruv axborot tizimini ishga tushirish.<br>2.Institutning ta’lim yo‘nalishlar va mutaxassisliklarini ish beruvchi korxonalarning ehtiyojlariga muvofiq, jumladan, yangi loyihalar bo‘yicha yaratilayotgan ish o‘rinlarini hisobga olgan holda optimallashtirish.<br>3.O‘quv reja va fan dasturlarini tegishli soha korxonalaridan mutaxassislarni (jumladan xorijiy) jalb qilgan holda ko‘rib chiqish.<br>4.Institut kutubxona fondidagi zamonaviy adabiyotlarni to‘liq elektron shaklga o‘tkazish.<br>5.Zamonaviy o‘quv adabiyotlarni yaratish, fan dasturlarini joriy etish, hamda professor-o‘qituvchilar o‘quv yuklamasini ta’lim yo‘nalishi va shaklidan (kunduzgi, kechki, sirtqi, masofaviy) kelib chiqib belgilash.<br>6.Professor-o‘qituvchilar tarkibini xorijda tahsil olgan mutaxassis va hozirda chet elda faoliyat yuritayotgan vatandosh yoshlar bilan to‘ldirib borish. | | R.A.Xabibullayev,<br>Kafedra mudirlari |
| 7. | Professor-o‘qituvchilarining zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarida stajirovka o‘tashlarini tashkil qilish<br>***Amalga oshirish mexanizmi:***<br>1.Tegishli tarmoq va soha korxonalari qoshida kafedra filiallarini tashkil etish.<br>2.Kafedra professor-o‘qituvchilarining ishlab chiqarish korxonalarida stajirovkalarini tashkil qilish.<br>3.Korxonalardagi zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga qo‘llagan holda talabalarga bilim berish.<br>4. Stajirovka davomida olingan ma’lumotlar asosida mutahassislik fanlari bo‘yicha ma’ruza matnlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlash. | yil davomida | T.T.Safarov,<br>X.Sh.Butayev,<br>R.A.Xabibullayev,<br>Kafedra mudirlari |
| 8. | Ishlab chiqarish korxonalari bilan talabalarning amaliyoti va stajirovkalarini tashkil etish<br>***Amalga oshirish mexanizmi:***<br>1.Soha ishlab chiqarish korxonalari bilan talabalar amaliyoti va magistrantlarning ilmiy stajirovkalarini tashkil etish bo‘yicha shartnomalarni tayyorlash va imzolash.<br>2.Talabalarning bitiruv malaviy ishlari va magistrlik dissertasiya mavzularini korxonadagi texnologik muammolarga yo‘naltirish.<br>3.Amaliyot davrida korxona tomonidan talabalarga tegishli sharoitlar yaratilishini ta’minlash. | 2022 yil<br>iyul-sentyabr | T.T.Safarov,<br>A.M.Mirkomilov,<br>R.A.Xabibullayev,<br>Kafedra mudirlari |
| 9. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-avgustdagi "Oliy, o‘rta maxsus va professional ta'lim muassasalari o‘rtasida ta'lim jarayoni hamda tarmoq tashkilotlari bilan ishlab chiqarish amaliyoti uzviyligini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5241-sonli qarorining 4-bandida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish. | 2022 yil<br>noyabr | T.T.Safarov,<br>Akademik litsey va texnikum direktorlari |
| 10. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyuldagi “Neft va gaz sohasida ta’lim – ishlab chiqarish klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-309-son qarorida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish. | 2022 yil<br>davomida | T.T.Safarov,<br>X.L.Pulatov,<br>X.Sh.Butayev, |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | A.M.Mirkomilov, Tegishli fakultet dekanlari va kafedra mudirlari |
| **1.2. Ilmiy salohiyatni oshirish, innovatsion va tijoratlashtirish faoliyatini kengaytirish** | | | |
| 11. | Talabalarni ilmiy tadqiqot va kichik innovatsion tadbirkorlikka jalb etish ishlarini faollashtirish<br>***Amalga oshirish mexanizmi:***<br>1.Kafedralarda "Ustoz-shogird" tizimi bo'yicha xar bir professor-o'qituvchiga iqtidorli talabalarni biriktirish va ularning ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish.<br>2.Kafedralarda tashkil etilgan ilmiy-ijodiy to'garaklar faoliyatini yaxshilash. Kafedra mudirlarining har chorakda to'garaklar faoliyati bo'yicha xisobotini fakul tet kengashlarida muxokama qilish.<br>3.Bir yilda kamida 2 marta iqtidorli talabalar o'rtasida "Innovatsion g'oyalar va ishlanmalar" tanlovini o'tkazish va g'oliblarni rag'batlantirish. | 2022 yil davomida<br><br>sentyabr-dekabr<br><br>oktyabr | X.L.Pulatov, N.N.Xodjayeva, Kafedra mudirlari, Fakultet dekanlari |
| 12. | Xususiy sektor bilan innovatsion hamkorlikni tashkil etish.<br>***Amalga oshirish mexanizmi:***<br>1.Xususiy sektorning ilmiy-innovatsion ehtiyojlarga bo'lgan talablarini o'rganish asosida hal etilishi lozim bo'lgan muammolar bazasini shakllantirish.<br>2.TKTI ishlanmalari va imkoniyatlari bilan xususiy sektorni institut Veb-sayti orqali muntazam tanishtirish, davra suhbatlari, muammoli seminarlarni tashkil etish.<br>3.Kafedralar tomonidan yo'nalishlar bo'yicha o'zaro manfaatli shartnomalarni shakllantirish va ular asosida hamkorlikni tashkil etish.<br>4.Innovatsion g'oyalar haftaligi – "InnoWeek"da kafedralardan ishtirok etish. | oktyabr-noyabr<br><br>har chorakda<br><br>yil davomida<br><br>sentyabr | X.L.Pulatov, A.T.Narimov, xamkor tashkilotlar, mutaxassislik kafedra mudirlari. |
| 13. | Ishlab chiqarishga tadbiq qilingan ishlanmalarga litsenzion shartnomalar tuzish.<br>***Amalga oshirish mexanizmi:***<br>1.Ixtiroga patentlarni rasmiylashtirish.<br>2.Kafedralar tomonidan olingan natijalarni ishlab chiqarish korxonalarida rasmiylashtirish. | yil davomida | X.L.Pulatov, N.R.Mardonov |
| 14. | Institutning jurnalini Scopus xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalariga kiritishni ta'minlash.<br>***Amalga oshirish mexanizmi:***<br>1.Chop etiladigan maqolalarning sifatiga bo'lgan talabni oshirish.<br>2.Scopus, ScienceDirect xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalariga kiritishni amalga oshirish. | yil davomida | X.L.Pulatov, N.R.Mardonov, |
| 15. | Professor-o'qituvchi, doktorant va xodimlarning Scopus va Web of Science halqaro ilmiy bazalarga kirgan jurnallarda maqola va monografiyalarni chop ettirishni kengaytirish<br>***Amalga oshirish mexanizmi:***<br>1.Scopus va Web of science halqaro ilmiy bazalarga kirgan jurnallar to'g'risida ma'lumotlarni berib | yil davomida | X.L.Pulatov, A.T.Narimov, Kafedra mudirlari |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | borish.<br>2.Ilmiy maqolalarni chop ettirgan mualliflarni moddiy rag‘batlantirib borish.<br>3.Institutda o‘tkaziladigan xalqaro konferensiya to‘plamini Scopus va Web of Science halqaro ilmiy bazalarga kiritish bo‘yicha choralar ko‘rish. | yil davomida<br><br>iyul-dekabr | |
| 16. | Muhim ilmiy yutuqlar va yuqori iqtiboslar bilan ishlash uchun O‘zbekistonning boshqa viloyatlaridan va xorijdan ilmiy jamoalar va olimlarni taklif etish, shuningdek, ilmiy tadqiqot ishlarining o‘zini-o‘zi amalga oshirishi uchun maqbul shart-sharoitlarni shakllantirish orqali institut ilmiy xodimlarining sifat darajasini oshirish. | yil davomida | X.L.Pulatov,<br>Z.A.Babaxonova,<br>A.T.Narimov,<br>Kafedra mudirlari |
| 17. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-307-son qarorida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish. | yil davomida | X.L.Pulatov,<br>A.T.Narimov,<br>N.R.Mardonov,<br>Tegishli kafedra mudirlari va fakultet dekanlari |
| **1.3. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish** | | | |
| 18. | Institut xodimlari va talabalarining turmush darajasi va ijtimoiy himoyasini oshirishni ta’minlash. | yil davomida | B.N.Boborajabov,<br>A.Q.Abdurahmonov,<br>v.v.b. R.T.G‘oziyev,<br>Fakultet dekanlari,<br>Tyutorlar |
| 19. | Institut o‘quv-tarbiya jarayoniga salomatlikni ta’minlovchi texnologiyalarni joriy etish va doimiy ravishda takomillashtirish, salomatlik va sog‘lom turmush tarzi uchun barqaror motivatsiyani shakllantirish, institutda profilaktika va sog‘lomlashtirish ishlarini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirish. | yil davomida | B.N.Boborajabov,<br>A.Abdurahmonov,<br>v.v.b. R.T.G‘oziyev,<br>Fakultet dekanlari,<br>Tyutorlar |
| 20. | Talabalarning ijtimoiy kompetensiyalari, axloqiy, ma’naviy va madaniy qadriyatlari va ehtiyojlarini shakllantirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish, shaxsiy, ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish. | yil davomida | B.N.Boborajabov,<br>B.B.Qodirov,<br>v.v.b. R.T.G‘oziyev,<br>Fakultet dekanlari,<br>Tyutorlar |
| 21. | Talabalarning ijtimoiy ahamiyatga molik tashabbuslarini ilgari surish, talabalarning o‘zini o‘zi boshqarish tizimini takomillashtirish. | yil davomida | B.N.Boborajabov,<br>D.J.Ernazarov,<br>v.v.b. R.T.G‘oziyev,<br>Fakultet dekanlari,<br>Tyutorlar |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **1.4. Xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish** | | | |
| 22. | Boshqa hududlar va xorijdan eng iqtidorli o‘z bitiruvchilarini hamda istiqbolli ilmiy-pedagogik xodimlarni institutga ishga jalb etish chora-tadbirlarini amalga oshirish<br>***Amalga oshirish mexanizmi:***<br>1. Kamida 10 nafardan institut bitiruvchilari, shuningdek soha bo‘yicha vatandoshlar bazasini shakllantirish.<br>2. Bitiruvchilar va vatandoshlarni institutdagi mavjud imkoniyatlar hamda o‘zgarishlar haqida tanishtirish uchun ular bilan muloqotlar tashkil etish.<br>3. Iqtidorli bitiruvchilar, xorijdan taklif etilgan xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalari asosida faoliyatlarini tashkil etish.<br>4. Xorijdan taklif etilgan xodimlarni yashash sharoitlari bilan ta'minlash. | 2022-yil avgust - dekabr<br>2022-yil davomida<br>2022-yil davomida<br>2022-yil davomida | Z.A.Babaxanova, B.B.Qodirov, S.Q.Sattorov |
| 23. | Institutidagi ilmiy ishlanmalar natijalarini xalqaro miqyosida targ‘ib qilish<br>***Amalga oshirish mexanizmi:***<br>1.Ilmiy ishlanmalar natijalarini xalqaro miqyosida (internet, radio, televidenie, jurnal) reklama qilish.<br>2.Yil davomida xalqaro hamkorlarimiz ishtirokida halqaro ilmiy-texnikaviy anjumanlar tashkil etish. | yil davomida<br><br>sentyabr-noyabr | X.L.Pulatov, N.R.Mardonov, Z.A.Babaxanova, mutaxassislik kafedra mudirlari |
| 24. | Institutni milliy va xalqaro reytinglarda munosib o‘rinlarga ko‘tarilishini ta'minlash maqsadida institut xodimlari, professor-o‘qituvchilarni xorijiy xizmat safar, xalqaro anjuman, kongress, seminar va tadbirlarda ishtiroklar, xorijiy universitetda taklif etilgan professor sifatida dars berish sonini va sifatini oshirish.<br>***Amalga oshirish mexanizmi:***<br>1. Xorijiy safarga yuborishda shartnoma asosida institut tomonidan moliyaviy ko‘mak berish.<br>2. Institut tomonidan ko‘mak ko‘rsatilgan xolda xorijiy xizmat safarida ishtirok etadigan professor-o‘qituvchi va xodimlar ma'lum va aniq reja tuzishi, shu jumladan, institut rivojdantirish uchun yangi ilmiy, o‘quv yeki b. turdagi ishlanmalar, tashabbuslar, SKOPUS yoki boshqa xalqaro ilmiy ba'zalarda hisobga olinadigan ilmiy maqolalar, xammualiflikda darslik va qo‘llanmalar chop etishi talab etiladi.<br>3. Xorijiy safardan so‘ng xodim ish faoliyatini TKTIda shartnomada kelishilgan muddatda davom ettirib ishlab berishi kerak. | yil davomida | Z.A.Babaxanova, B.B.Qodirov, X.L.Pulatov, T.T.Safarov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari |
| 25. | Chet el OTMlari bilan talaba, magistrant va doktorantlar hamda yosh ilmiy xodimlar akademik almashinuvlarini amalga oshirish<br>***Amalga oshirish mexanizmi:***<br>Evropa Ittifoqining Erasmus plyus dasturlari doirasida institut talaba, magistrant va doktorantlar hamda yosh ilmiy xodimlarni Ispaniya, Daniya, Italiya, Pol'sha, Ruminiya va b. davlatlardagi xamkor | 2022-yil sentybr-noyabr | T.T.Safarov, Z.A.Babaxanova, Fakultet dekanlari |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | OTMlarga akademik almashinuvini amalga oshirish.<br>– Ispaniya: Oviedo universiteti, Kantabriya universiteti<br>– Pol'sha:AGH University of Science and Technology, Sileziya texnologiya universiteti.<br>– Ruminiya: Al'ba Yuliya 1 dekabr 1918 yil universiteti; Vest Timisoara universiteti.<br>– Daniya: Kopengagen universiteti.<br>– Chexiya: Chexiya tabiiy fanlar universiteti.<br>– Italiya: Turin politexnika universiteti. | | |
| 26. | Xorijiy abiturientlar va xorijiy OTMlar bilan yuritilayotgan ikki tomonlama diplom o‘quv dasturlariga qabul qilish jarayonida ishtirok etish<br>***Amalga oshirish mexanizmi:***<br>Abiturientlarning talabalikka loyiq ekanliklari aniqlanadi, o‘qishga tavsiya etiladi, tegishli xujjatlar rasmiylashtiriladi | 2022-yil avgust-sentybr | Z.A.Babaxanova, |
| 27. | Xorijiy talabalarning o‘qishga qabul qilinishiga tayyorgarlik ko‘rish va ularning yashash joylarini tayyorlash<br>***Amalga oshirish mexanizmi:***<br>Talabalarning yashashlari va o‘qishlari uchun mos sharoitlar yaratiladi | 2022-yil avgust-sentyabr | Z.A.Babaxanova, |
| 28. | **Institutga qabul qilingan xorijiy talabalarning vizalarini rasmiylashtirish,** Respublika XChK va FB orqali Toshkent shaxrida vaqtinchalik yashash uchun ro‘yxatdan o‘tishlarini nazorat qilish<br>***Amalga oshirish mexanizmi:***<br>Talabalarning vizalarini muayyan muddatga uzaytirib berish va Toshkent shaxrida vaqtinchalik yashash xuquqini olishiga erishiladi. | 2022-yil sentyabr | Z.A.Babaxanova, |
| 29. | Xorijlik talabalar bilan davra suhbati o‘tkazish, institut ichki tartib-qoidalari haqida tushuntirish berish<br>***Amalga oshirish mexanizmi:***<br>Talabalarning bilimga bo‘lgan qiziqishlari orttiriladi ularning o‘zlarining na'munali tutishlariga erishiladi | 2022-yil avgust-sentyabr | Z.A.Babaxanova, |
| 30. | Qishki ta’til davrida (taxminiy 2-10 yanvar 2023 y.) maxalliy va horijiy talabalar uchun qishki maktab dasturini tuzish (30 nafar talaba)<br>***Amalga oshirish mexanizmi:***<br>1. Qishki maktab dasturini tuzish (Soha ishlab chiqarish korxonalari, institut kafedralari, madaniyat bilan tanishtirish).<br>2. Soha ishlab chiqarish korxonalari bilan kelishish. Qishki maktab uchun manzil belgilash.<br>3. Qishki maktab o‘tkazilish davrida maxalliy va horijiy talabalar uchun yashash joylarini tayorlash. | 2022 yil sentyabr - dekabr | T.T.Safarov, Z.A.Babaxanova, Yoshlar Kengashi, X.L.Pulatov, Kafedra mudirlari |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **1.5. Moliyaviy-iqtisodiy faoliyatni yaxshilash va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash** | | | |
| 31. | Bino va inshootlar, mavjud moddiy imkoniyatlardan foydalanish samaradorligini oshirish va institut infratuzilmasini xalqaro darajaga olib chiqish. | 2022-yil davomida | B.B.Qodirov, A.A.Suleymanov, X.X.Karimov, fakultet dekanlari |
| 32. | Bino va inshootlarni ta’mirlash, jihozlash ishlarini, zarur inventarlar, kompyuter texnikalari va boshqa jihozlar xaridini amalga oshirish<br>***Amalga oshirish mexanizmi:***<br>1. Amalga oshiriladigan xizmatlar, xaridlar haqidagi ma’lumotlarni institut veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash.<br>2. Barcha xizmatlar va xaridlarni qonun asosida komissiya qaroriga asosan amalga oshirish.<br>3. Qurilish-ta’mirlash ishlarini bajarish, kompyuter texnikalari, mebel va ofis jihozlari xarid qilish;<br>4. Ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati tomonidan mablag‘larning to‘g‘ri sarflanishi yuzasidan o‘rganishlar o‘tkazish. | 2022-yil davomida<br>doimiy<br>yil davomida<br>har chorakda | B.B.Qodirov, K.D.Umarov, R.B.Usmonov, X.A.Mavlyankulov |
| **33.** | Davlat xususiy sherikchilik asosida talabalar turar joyini qurish ishlarini amalga oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. | 2022-yil avgust-dekabr | B.B.Qodirov, A.A.Suleymanov |
| **34.** | TKTI barpo etilishi rejalashtirilgan ilmiy ta'lim klasteri binolari loyixalari bo'yicha takliflar tayyorlash. | 2022-yil avgust | B.B.Qodirov |
| **II. 2022-yil II yarim yillikda Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim ta’lim vazirligining 2022-yil II yarim yilligi Ish rejasida belgilangan vazifalari hamda Institutining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalari** | | | |
| 35. (1) | Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni 2022-yilda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish. | 2022-yil II yarim yillik | B.N.Boborajabov, T.T.Safarov, X.L.Pulatov, B.B.Qodirov |
| 36. (2) | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasidan kelib chiqadigan ijtimoiy sohani rivojlantirishga oid tegishli vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish. | 2022-yil II yarim yillik | B.N.Boborajabov, B.B.Qodirov, Fakultet dekanlari |
| 37. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-noyabr kuni o‘z lavozimiga kirishishiga | 2022-yil | B.N.Boborajabov, |

| | | | |
|---|---|---|---|
| (3) | bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqlarida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqadigan ijtimoiy sohani rivojlantirishga oid tegishli vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish. | II yarim yillik | T.T.Safarov, X.L.Pulatov, B.B.Qodirov |
| 38. (4) | Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish. | 2022-yil II yarim yillik | B.N.Boborajabov, T.T.Safarov, X.L.Pulatov, B.B.Qodirov |
| 39. (5) | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining respublika hududlariga tashriflari yakunlari bo'yicha tasdiqlangan bayonnomalarda belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash. | 2022-yil II yarim yillik | B.N.Boborajabov, T.T.Safarov, X.L.Pulatov, B.B.Qodirov |
| 40. (6) | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida o'tkazilgan majlislar bayonnomalarida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash. | 2022-yil II yarim yillik | B.N.Boborajabov, T.T.Safarov, X.L.Pulatov, B.B.Qodirov |
| 41. (7) | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni va ""Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qaroridan kelib chiqadigan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish. | 2022-yil II yarim yillik | Soha prorektorlari, Fakultet dekanlari, Bo'lim boshliqlari, Kafedra mudirlari |
| 42. (9) | O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy komissiyasi tomonidan tayyorlangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi Qonun loyihasi muhokamasida ta'lim yo'nalishida takliflar bilan faol ishtirok etish. | 2022-yil II yarim yillik | B.N.Boborajabov, v.v.b. R.T.G'oziyev, T.T.Safarov, X.L.Pulatov, B.B.Qodirov |
| 43. (24) | Institut talabalari bandligini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish holatini tahlil qilish | 2022-yil dekabr | A.M.Mirkomilov, B.N.Boborajabov, T.T.Safarov, Fakultet dekanlari, Mutaxassislik kafedra mudirlari |
| 44. (25) | **O'**zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son, "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020- | 2022-yil II yarim yillik | B.N.Boborajabov, T.T.Safarov, X.L.Pulatov, |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son Farmonlarining sifatli bajarilishini ta'minlash. | | B.B.Qodirov, Fakultet dekanlari, Bo‘lim boshliqlari, Kafedra mudirlari |
| 45. (29) | Davlat gerbining milliy davlatchiligimiz tarixi, mustaqil taraqqiyot. bugungi yuksalish davrida tutgan o‘rnini inobatga olgan holda 2-iyuI — “O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingan kun munosabati bilan institutda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirish. | 2022-yil iyul | B.N.Boborajabov, v.v.b. R.T.G‘oziyev, Fakultet dekanlari, Tyutorlar |
| 46. (32) | Institutda 21-oktyabr — “O‘zbek tili bayrami kuni”ga bag‘ishlangan tantanali bayram tadbirlarini yuqori saviyada tashkil etish. | 2022-yil oktyabr | B.N.Boborajabov, v.v.b. R.T.G‘oziyev, Fakultet dekanlari, Tyutorlar |
| 47. (36) | Institutda davlat tilida ish yuritishni to‘liq joriy etish, xodimlarning bu boradagi malakasini muntazam ravishda oshirib borish bo‘yicha takliflar tayyorlash. | 2022-yil II yarim yillik | B.N.Boborajabov, T.T.Safarov, X.L.Pulatov, B.B.Qodirov, Fakultet dekanlari |
| 48. (38) | Institutda taniqli olimlar, ijodkorlar, ma'naviyat targ‘ibotchilari hamda sanatkorlar ishtirokida o‘zbek tiliga bag‘ishlangan ommaviy tadbirlar, davra suhbatlari, adabiy kechalar o‘tkazib borish. | 2022-yil II yarim yillik | B.N.Boborajabov, v.v.b. R.T.G‘oziyev, Fakultet dekanlari, Tyutorlar |
| **49.** | Institutning yetakchi xalqaro QS, THE va ARWU reytinglariga kirishi uchun talablarni o‘rganish hamda u yerga talab etilgan to'liq tahliliy ma’lumotlarni kiritib,  yangilab borish. | yil davomida | M.B.Xidirkulova |
| **III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va Hukumat qarorlari ijrosini maqsadli o‘rganish** | | | |
| 50. (48) | O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida” 2017-yil 11-sentabrdagi O‘RQ-445-son Qonuni. | 2022-yil II yarim yillik | U.R.Kadirov |
| 51. (50) | O‘zbekiston Respublikasi Preeidentining "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" 2021-yil 10-fevraldagi 6166-son Farmoni. | 2022-yil II yarim yillik | U.R.Kadirov, B.N.Boborajabov, T.T.Safarov, X.L.Pulatov, B.B.Qodirov |
| 52. (52) | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida” 2022-yil 15-iyundagi PQ-279-son qarori hamda “2022-2023-o‘quv yili uchun davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi | 2022-yil iyul | T.T.Safarov, M.Vapayev, U.R.Kadirov, |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | parametrlari to‘g‘risida” 2022-yil 15-iyundagi F-60-son farmoyishining bajarilishini maqsadli o‘rganish. | | M.Yunusov |
| 53. (49) | O‘zbekiston Respublikasi Preeidentining “"Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori bajarilishini maqsadli o‘rganish. | 2022-yil avgust | T.T.Safarov, U.R.Kadirov, M.Yunusov |
| 54. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan soxalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son Farmoni bajarilishini maqsadli o‘rganish. | 2022-yil oktabr | T.T.Safarov, B.N.Boborajabov, X.L.Pulatov, U.R.Kadirov |
| 55. | "O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020 yil 4 noyabrdagi PQ-4884-son qarori bajarilishini maqsadli o‘rganish. | 2022-yil noyabr | T.T.Safarov, B.N.Boborajabov, R.A.Xabibullaev, U.R.Kadirov |
| 56. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori ijrosini tahlil qilish. | 2022-yil dekabr | T.T.Safarov, X.Sh.Butayev, Z.A.Babaxanova, Fakultet dekanlari |
| 57. (53) | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-60-son qarori hamda “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 22021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-son qarorarining bajarilishini maqsadli o‘rganish. | 2022-yil dekabr | B.B.Qodirov, T.T.Safarov, U.R.Kadirov, B.N.Boborajabov, X.L.Pulatov |
| 58. (54) | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlarining mas’ul ijrochilar tomonidan topshiriqlar ijrosini ta’minlash holatining “Ijro.gov.uz” tizimidagi tahlili. | har oyda | U.R.Kadirov |
| **IV. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 30-iyun — Yoshlar kuni munosabati bilan mamlakat yoshlariga yo‘llagan bayram tabrigida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi** | | | |
| 59. (62) | Yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasidagi tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish | 2022-yil iyul | B.N.Boborajabov, v.v.b. R.T.G‘oziyev, Fakultet dekanlari, Tyutorlar |
| 60. (63) | Mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish. | 2022-yil avgust | B.N.Boborajabov, v.v.b. R.T.G‘oziyev, Fakultet dekanlari, Tyutorlar |
| 61. | Yoshlarning Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va | 2022-yil | B.N.Boborajabov, |

| | | | |
|---|---|---|---|
| (65) | axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish. | sentyabr | v.v.b. R.T.Gʻoziyev, Fakultet dekanlari, Tyutorlar, Matbuot kotibi |
| 62. (66) | Yoshlarimiz ongiga salbiy ta’sir etuvchi, ularni gʻoyaviy jihatdan qaram etishga yoʻnaltirilgan harakatlarga qarshi samarali kurash olib borish hamda irodali, fidoyi, vatanparvar va oʻz mustaqil fikriga ega avlodni tarbiyalash boʻyicha amaliy seminariarni tashkil etish. | 2022-yil sentyabr | B.N.Boborajabov, v.v.b. R.T.Gʻoziyev, Fakultet dekanlari, Tyutorlar, Matbuot kotibi |
| 63. (68) | Yoshlarni boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda Adiblar xiyobonidan samarali foydalanish, shuningdek, yosh iste'dod egalarini kashf etish va ularni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash maqsadida Respublikamizning barcha hududlarida “Xiyobon oqshomlari” nomli she'riyat kechalarini tashkil etish | 2022-yil II yarim yillik | B.N.Boborajabov, v.v.b. R.T.Gʻoziyev, Fakultet dekanlari, Tyutorlar, Matbuot kotibi |
| **V. Oliy va oʻrta maxsus ta’lim ta’lim vazirligi boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi iqtiodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani rivojlantirish yuzasidan 2018-2021-yillarda oʻtkazilgan maslislar bayonlaridagi 2022-yil II yarim yillikda bajarilishi lozim boʻlgan nazorat bandlari** | | | |
| 64. (97) | *Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2022-yil 28-yanvar kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishinmg 8-son majlis bayoni (№ 02-RA 1-1581, 05.02.2022-y.)*<br>16.1-band. Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligi (Toshqulov). Xalq ta'limi vazirligi (Saidov), oliy ta'lim muassasalari rektorlari akademik litseylarning eng tajribali pedagog-xodimlarini hududiy xalq ta'limi muassasalariga mehnat faoliyatini olib borish uchun yuborish choralarini koʻrsin | 05.08.2022 | T.T.Safarov, Z.J.Xolmirzayev |
| 65. (104) | *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida 2022-yil 10-iyun kuni o'tkazilgan videoselektor yigʻilishning 48-son majlis bayoni (№ 02-RA 1-20838. 20.06.2022-y.)*<br>11.1-band. Oliv va oʻrta maxsus ta'lim vazirligi (Toshkulov) olivgohlar rektorlari bilan birgalikda 2022-yil yakuniga qadar barcha oliygohlarda elektr va issiq suv ta'minoti hamda koʻchalarni yoritish uchun muqobil energiya manbalarini oʻrnatsin. | 31.12.2022 | B.B.Qodirov |
| 66. (106) | *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida 2022-yil 4-mart kuni o'tkazilgan videoselektor yigʻilishining 19-son majlis bayoni (№ 02-RA 1-3416, 10.03.2022-y.)*<br>3-iIova 9.3-band. Oliv ta'lim muassasalaridagi boshqaruv, texnik, xizmat koʻrsatuvchi va oʻquv-yordamchi lavozimlari boʻyicha mavjud vakant joylarga 3 mingdan ziyod talabani ishga olish choralarini koʻrish. | 31.12.2022 | S.Q.Sattorov, B.B.Qodirov, B.N.Boborajabov, T.T.Safarov, X.L.Pulatov, A.M.Mirkomilov |
| 67. | *Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida 2022-yil 4-mart kuni* | 31.12.2022 | S.Q.Sattorov, |

| | | | |
|---|---|---|---|
| (107) | *o'tkazilgan video.se/ektor yig'ilishining 19-son majlis bayoni (№ 02-RA 1-3416. 10.03.2022-y.)*<br>4.3.2-band. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A.Toshkulov) Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N.Xusanov), tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar, oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikda ikki hafta muddatda oliy ta'lim muassasalaridagi boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi lavozimlari bo'yicha mavjud vakant joylarga talabalarni qabul qilish bo'yicha shaffof fizimni yo'lga qo'yib, bu orqali yil yakuniga qadar 3 mingdan ziyod talabaning bandligini ta'minlash choralarini ko'rsin. Bunda, istisno tariqasida, rektorlarga talabalarning bilim va salohiyatidan kelib chiqib, tegishli lavozimlarga ishga qabul qilishga ruxsat berilsin. | | B.B.Qodirov,<br>B.N.Boborajabov,<br>T.T.Safarov,<br>X.L.Pulatov,<br>A.M.Mirkomilov |

***Izoh.*** *Toshkent kimyo-texnologiya institutining 2022-yil II yarim yilligi ISH REJASIdagi vazifalar ijrosiga mas'ul shaxslar boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning o'rniga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.*